



INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI ANTROPOSENTRIK YONDASHUV ASOSIDA TARBIYALASHNING JAHON TAJRIBASI

Oppoqxo'jayev X.A.

Qo'qon davlat pedagogika instituti, Maxsus pedagogika kafedrasini o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: inklyuziv ta'lim, antroposentrik yondashuv, jahon tajribasi, korreksion faoliyat, qo'llab quvvatlash tamoyili.

Ключевые слова: инклюзивное образование, антропоцентрический подход, мировой опыт, коррекционная деятельность, принцип поддержки.

Key words: inclusive education, anthropocentric approach, world experience, correctional activity, principle of support.

Резюме:

Maqolada xalqaro davlatlarning inklyuziv ta'limi va ta'lim jarayonini antroposentrik yondashuv asosida tashkil etish masalalari tahlili, jumladan Rossiya, Turkiya, Norvegiya va Germaniya kabi jahonning ilg'or mamlakatlarida inklyuziv ta'limga yaratilgan sharoitlari ochib berilgan.

Резюме:

в статье анализируются вопросы инклюзивного образования в зарубежных странах и организации образовательного процесса на основе антропоцентрического подхода, в том числе условия, созданные для инклюзивного образования в передовых странах мира, таких как Россия, Турция, Норвегия и Германия.

Summary:

The article analyzes the issues of inclusive education in international countries and the organization of the educational process based on an anthropocentric approach, including the conditions created for inclusive education in advanced countries of the world such as Russia, Turkey, Norway and Germany.

Jahon davlatlarining ta'lim tizimiga nazar tashlasak, inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning maktablarida o'qishi, o'qish davomida oilaviy hayotda uzoq bo'ishi, o'zi ko'nikkan, moslashgan muhitdan chetga chiqishi, atrofidagi, tengdoshlari bilan munosabat o'rnatishda qiyinchilikka duch kelishi kabi muammolar kuzatilganligiga guvoh bo'lamiz. Inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim oluvchi o'quvchilar ko'pincha ruhiy deformatsiyani boshdan o'tkazadilar.



Biz tadqiqotimizni olib borishda xalqaro davlatlarning inklyuziv ta'limi va ta'lim jarayonini antroposentrik yondashuv asosida tashkil etish masalari tahlil qildik. Jumladan Rossiya federatsiyasida inklyuziv ta'lim jarayoni o'tgan asrning 80-90-yillaridan boshlab joriy etila boshlandi. 1991-yilda Rossiyada dastlabki inklyuziv ta'limga ixtisoslashgan umumiy o'rta ta'lim maktabi ochildi. 1996-yildan boshlab Rossiyada inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim-tarbiya berish uchun mutaxassislar tayyorlana boshlandi. Rossiyada inklyuziv ta'lim tizimida antroposentrik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi zamonaviy ta'limning o'ziyoq antroposentrik yondashuvni ustuvor vazifa sifatida qo'yimoqda. Chunki ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi turadi. Rossiyada inklyuziv ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilangan bo'lib ular quyidagilar:

- Umumiy va maxsus ta'lim tizimini takomillashtirish sohasida qarorlar qabul qilish jarayonlarini axborotlashtirish;

- Ta'lim shakllarini yetarli darajada aniqlash va barcha turdagi ta'lim tashkilotlarini to'g'ri jalb qilish maqsadida psixologik-tibbiy-pedagogik kommissiyalar (PMPC) faoliyati sifatini oshirish;

- Nogiron bolalar va barcha toifadagi nogironligi bo'lgan o'quvchilarning sifatli ta'lim olishlari uchun maxsus shart-sharoitlarini ta'minlash;

- Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishga inklyuziv yondashuvlarni amalga oshiruvchi umumiy va maxsus ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- Umumiy va maxsus ta'lim, yta'lim tashkilotlarining muvaffaqiyatli o'zaro hamkorligi uchun huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish;

- Nogiron bolalar va nogiron bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislar uchun qo'shimcha kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish, shuningdek, oliy ta'lim tashkilotlarining maxsus (defektologik) fakultetlari professor-o'qituvchilari malakasini oshirish;

- Nogiron o'smirlar va nogiron o'smirlarni mustaqil hayotga va kasbiy o'zini-o'zi belgilashga tayyorlash tizimini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- Ota-onalar yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslarning maxsus ta'lim jarayonida ishtirok etish uchun sharoit yaratish;

- BMTning nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvetsiyaga muvofiq jamiyatda nogiron bolalar va nogiron bolalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish;



- Nogiron yoki nogiron o'quvchilar uchun umumiy va maxsus ta'lim tizimining jamiyatning zamonaviy talablarga javob beradigan tarkibiy qismlarini loyihalash;

- Nogiron bolalarni o'rgatuvchi mutaxassislarning Butunrossiya jamoat birlashmasini yaratish [1]

Rus olimlaridan A.R.Miller va G.V.Sikoto tadqiqotlari natijasida inklyuziv ta'limga jalb qilingan o'quvchilardan tezkor qo'zg'aluvchan bolalar yoki nisbatan ma'lumotlarning yetib borishi sust bolalar rivojlanishlari uchun bir qancha shartlar bajarilishi lozim deb hisoblaydilar:

Birinchidan, korreksion faoliyatni imkon qadar erta boshlash;

Ikkinchidan, ijobiy oilaviy muhit hamda ta'lim muassasalarining oilalar bilan o'zaro aloqada bo'lishi;

Uchinchidan, imkoniyati cheklangan balalarning yosh hususiyati hamda mavjud imkoniyatlariga va ularning ta'lim tarbiya maqsadlariga hamohang ta'lim dasturi va vositalaridan foydalanish [2] zarurligini ta'kidlaydilar.

Rossiya inklyuziv ta'lim tizimida antroposentrik yondashuvning o'ziga hos jihatlaridan yana biri bu psixologik markazlarining inklyuziv ta'limga ixtisoslashtirilgan maktablar bilan muntazam aloqada bo'lishadilar. Ya'ni har bir inklyuziv ta'lim jarayonida o'qiydigan bolalar bilan jamoaviy hamda yakka tartibda mashg'ulotlar olib boriladi. Shuningdek, ushbu mashg'ulotlar uularning ustozlari bilan ham tashkil etiladi. Bunday yondashuv ta'lim muhitini sog'lomlashtirishga va imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim muhitiga moslashishlarida muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

Turkiya inklyuziv ta'lim tizimida ham antroposentrik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'lim tizimida tehsil oluvchi o'quvchilarga (aqliy nuqsonlari bo'lganlar, eshitish nuqsonlari, jismoniy nuqsonlar, maxsus qobilyatlar, diqqat yetishmasligi buzilishi, giperaktivlik, nutq buzilishlari, autistic kasalliklar, o'rganishdagi nuqsonlar va surunkali kasalliklar) ta'lim berishida insonparvarlik g'oyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni sog'lom bolalar bilan ta'lim olishida, sog'lom bolalarning va ularning ota-onalarining munosabati tahlil qilinib inklyuziv ta'lim 3 turga bo'lingan

- To'liq inklyuziv ta'lim;

- Sirtqi inklyuziv ta'lim;

- Teskari inklyuziv ta'lim.

To'liq inklyuziv ta'lim – ta'limning dastlabki bosqichidanoq aqliy, jismoniy, hususiyatlaridan qat'iy nazar birgalikda ta'lim olish

Sirtqi inklyuziv ta'lim – dastlab maxsus moslashtirilgan ta'lim sinflarida o'qigan, keyinchalik sog'lom bolalar sinfiga qo'shilish. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarni holatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Teskari inklyuziv ta'lim – sog'lom bolalarni o'zlarining yoki ota-onalarining iltimosiga binoan inklyuziv ta'lim maktablariga borishi [3].

Turkiyada inklyuziv ta'limga dastlabki qadamlar 1983-yilda “Maxsus ta'limga muhtoj bolalar to'g'risida”gi qonun bilan qo'yilgan. 1997-yilda maxsus ta'lim to'g'risidagi Nizom qabul qilindi. 2016-yilda mazkur Nizom takomillashtirildi. Tadqiqotchilar O.Kahya va V.Hosgorurlarning keltirishicha, Turkiyada inklyuziv ta'lim jarayoniga qamrov 90 ming nafarni tashkil etadi [3].

Turkiya inklyuziv ta'limda antroposentrik yondashuv yaqqol ko'rinib turadi. Har bir ta'lim oluvchi ta'lim faoliyatining markazida turadi. Ta'lim oluvchilar uchun (nuqsoniga qarab) maxsus tarbiyachilar birlashtiriladi.

Norvegiya ta'lim tizimiga nazar solsak, inklyuziv ta'lim jarayoni barcha uchun birdek imkoniyat yaratish, ularning iste'dodini ro'yobga chiqarish, individual salohiyatini hamda ta'lim ehtiyojlarini qondirish sifatida ko'riladi. Mamlakatda ijtimoiy kelib chiqishi, millati, dini hamda iqtisodiy ahvolidan qat'iy nazar barcha imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'lim olishi kafolatlangan.

Norvegiya inklyuziv ta'limi adaptive ta'lim orqali amalga oshiriladi.

Adaptiv ta'lim deganda ustozlarning ta'lim oluvchilar ehtiyojidan kelib chiqqan holda, ta'lim jarayonini tashkil etish tushuniladi [4]. Adaptiv ta'lim mazmun jihatdan antroposentrik yondashuvga mos ta'lim hisoblanadi. Adaptive ta'limda ham antroposentrik yondashuvda ham ta'limiy faoliyat ta'lim oluvchilar ehtiyojidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Norvegiyada inklyuziv ta'lim jarayonini olib borishda ta'lim ishtirokchilarini “mukofotlash”, “rag'batlantirish” tamoyili ustuvorlik kasb etadi. Ya'ni ta'lim ishtirokchisining ta'limiy faoliyatidagi kichik yutug'I (darsni tayyorlab kelishi, nutq so'zlashi, fikr bildirishi va b) o'qituvchi tomonidan rag'batlantirib turiladi.

Germaniyada yarim milliondan ortiq imkoniyati cheklangan bolalar va yoshlar mavjud bo'lib, ularning 25%i umumta'lim maktablarida va qolgan 75%i maxsus maktab internatlarida tehsil oladi. Mamlakatda 13 turdagi maxsus (korreksion) ta'lim muassasalari mavjud. Biroq, bunday maktablar o'z faoliyatini qoniqarsiz namoyon etib, o'quvchilarning deyarli 80%i ushbu dargohlarni tark etadi. Shu sababli, Germaniya ta'lim tizimi – alohida ehtiyojli bolalar sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishi uchun inklyuziv ta'limga bosqichma bosqich o'tmoqda [5].



1-rasm. Germaniyada qo'llab quvvatlash tamoyili

Germaniyada inklyuziv ta'limni joriy etishdagi dastlabki qadam deb 1972-yilda qabul qilingan “Maxsus ta'limni tashkil etishga oid tavsiyalar” va 1979-yilda qabul qilingan “Maxsus extiyojli bolalarni integratsiya ta'lim tizimida o'qitish” konseptsiyasini aytish mumkin. Dastlab maxsus ta'lim negizida amalga oshirilgan inklyuziv ta'lim o'tgan asrning 90-yillariga kelib alohida tarmoq sifatida ajralib chiqdi. Buning natijasida ta'lim tizimiga “integratsiyalashtirish” atamasi kirib keldi. Imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishda asosiy e'tibor antroposentrik yondashuvning qo'llab-quvvatlash tamoyilining turli shakllari mavjud (1-rasm).

Oldini oluvchi – qo'llab quvvatlashning ushbu bosqichi pedagog va ota-onalar yohud ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga yetarlicha malakali maslahat berishni nazarda tutadi. Bu bosqichda nuqsonli bolalarning individual imkoniyatlaridan kelib chiqib, ta'lim berishning shakllari, bosqichlari va turlari haqida maslahatlar beriladi. O'quvchining nuqsoni qay darajaligiga qarab inklyuziv ta'lim samaradorligi aniqlanadi.

Birgalikda ta'lim – ushbu bosqichda mutaxassis pedagog yoki psixoli-pedagoglar tomonidan o'quv xonasi yoki uning tashqarisida to'liq yoki qisman ish kuni davomida ta'lim berishni nazarda tutadi. Bu bosqichda o'quvchining nuqsoniylik darajasidan kelib chiqib, ta'lim dasturi ishlab chiqiladi va inklyuziv

ta'lim jarayoniga jalb qilinadi. rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni umumiy maktablarga jalb qilgan holda o'quv jarayoniga moslashishlariga ko'maklashish, imkon qadar layoqatlarini ro'yobga chiqarishga erishish, ularda jamoa bilan muloqotga kirishish ko'nikmalarini shakllantirish, ma'lum kasb-hunarga yo'naltirish ustuvorlik kasb etadi.

Koroprativlik – ushbu bosqichda birgalikda ta'lim olayotgan bolalarni boshqa inklyuziv ta'lim sinflari bilan uyg'unlashtirish, ularning o'zaro munosabatga kirishishlariga imkon yaratish, shuningdek, inklyuziv va umumiy ta'lim maktablari o'rtasida munosabatlarini yo'lga qo'yish, o'zaro tanishtirish amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda integratsiyalashgan ta'limning olib borilishi, pedagoglar va sog'lom hamda imkoniyati cheklangan bolalar bilimini oshishiga, ta'lim muhitini yaxshilanishiga va tajriba almashgan holda maktab faoliyatiga ijobiy ta'sir o'tkazilishiga qaratiladi.

Xorijiy tajribalar tahlili yakunida shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'lim sharoitida umumta'lim muassasalari o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalashda tizimlilik, individual hususyatlar, jamoaviy hususyatlar, ichki va tashqi muhit omilini e'tiborga olish muhimdir. Ko'p hollarda rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, imkoniyati cheklangan o'quvchilar o'z shaxsiy imkoniyatlarini doim ham namoyish eta olmaydilar. Ularni jamoaviylashuvi, bilim olishi, kasb tanlashi, mehnat bozorida o'z o'rniga ega bo'lishida ma'lum qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish, ularga qarshi kompleks choralar ishlab chiqish va doimiy nazoratda bo'lishini nazarda tutuvchi qat'iy vazifalar belgilanishi lozim. Buning uchun xorijiy davlatlarning ilg'or pedagogik tajribalari, ta'lim yutuqlarini tanqidiy tahlil qilgan holda yondashish muhim ahamiyatga ega. Ushbu jihatlardan kelib chiqqan holda biz, umumta'lim muassasalarimizda inklyuziv ta'limni tashkil etishda antroposentrik yondashuvga nechog'lik amal qilinmoqda, ta'lim berishda antroposentrik yondashuv tamoyillari qay darajada inobatga olinayotganligini o'rganish lozim degan yakuniy hulosaga keldik.

Adabiyotlar:

1. <https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/869/793>
2. Маллер А.Р., Цикота Г.Б., Обучение, воспитание и трудовая подготовка детей с глобокими нарушениями интеллекта. – М.: 1998. – 59-с
3. Kahya. O., & Hosgorur.V., (2018). Comparing inclusive education in Turkey and Argentina. International Online Journal of Education and Teaching (IOJET), 5(1), 82-92
4. Викулина М.А. Личносно-ориентированный подход в педагогике: теоретическое обоснование и пути реализации
5. Imkoniyati cheklangan yoshlar ta'limi: Germaniya. <https://yomi.uz/imkoniyati-cheklangan-yoshlar-ta'limi-germaniya/>